



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

IXTISOSLASHTIRILGAN YORDAMCHI MAKTAB MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Xamidova Muyassar Polsaidovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarda matematika darslarini tashkil etishda didaktik o'yinlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Maqolada aqli zaif (intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan) o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning matematik tasavvurlarini shakllantirish va mustahkamlashda o'yin texnologiyalarining o'rni ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan. Didaktik o'yinlarning mazmuni, turlari hamda ularni dars maqsadiga muvofiq tanlash mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'yin jarayonida o'quvchilarning tafakkuri, xotirasi, diqqati, tezkor fikrlashi, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Mazkur maqola maxsus pedagogika, xususan, oligofrenopedagogika yo'nalishida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalarga metodik tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab, matematika darsi, aqli zaif o'quvchilar, oligofrenopedagogika, korreksion ta'lim, ijtimoiy moslashuv.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ ВСПОМОГАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Хамидова Муяссар Полсаидовна

Национальный педагогический университет Узбекистана, профессор

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования дидактических игр при организации уроков математики в специализированных вспомогательных школах. Статья научно и методологически обосновывает роль игровых технологий в активизации познавательной деятельности умственно отсталых (с нарушениями интеллектуального развития) учащихся, формировании и укреплении их математического воображения. Анализируются содержание, виды дидактических игр и критерии их отбора в соответствии с целью урока. Также указываются возможности развития мышления, памяти, внимания, быстрого мышления, навыков сравнения и обобщения учащихся в процессе игры. Данная статья служит методическим руководством для учителей, исследователей и студентов, работающих в области специальной педагогики, в частности, олигофренопедагогики.

Ключевые слова: дидактическая игра, специализированная вспомогательная школа, урок математики, умственно отсталые учащиеся, олигофренопедагогика, коррекционное образование, социальная адаптация.

THE USE OF DIDACTIC GAMES IN MATHEMATICS LESSONS IN A SPECIALIZED AUXILIARY SCHOOL

Xamidova Muyassar Polsaidovna

National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor

Abstract

This article discusses the issues of effective use of didactic games in organizing mathematics lessons in specialized auxiliary schools. The article scientifically and methodologically substantiates the role of game technologies in activating the cognitive activity of mentally retarded (with intellectual developmental defects) students, forming and strengthening their mathematical imagination. The content, types of didactic games and the criteria for selecting them in accordance with the purpose of the lesson are analyzed. Also, the possibilities of developing students' thinking, memory, attention, quick thinking, comparison and generalization skills during the game process are indicated. This article serves to provide methodological recommendations to teachers, researchers and students working in the field of special pedagogy, in particular, oligophrenopedagogy.

Keywords: didactic game, specialized auxiliary school, mathematics lesson, mentally retarded students, oligophrenopedagogy, correctional education, social adaptation.

Bugungi kunda maxsus ta'lim tizimida intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarda ta'lim jarayoni o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, bilish jarayonlarining sust rivojlanganligi, diqqatning beqarorligi hamda tafakkur operatsiyalarining yetarli shakllanmaganligini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Ayniqsa, matematika fanini o'qitishda o'quvchilarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, hisoblash malakalarini rivojlantirish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus pedagogika nazariyasida, xususan, L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasida ta'lim bolaning rivojlanish jarayonini yetaklovchi omil sifatida talqin etiladi. Shuningdek, M.I. Perova tadqiqotlarida maxsus (korreksion) maktablarda matematika o'qitish metodikasi o'quvchilarning individual imkoniyatlariga tayangan holda, amaliy faoliyat va ko'rgazmalilik asosida olib borilishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu yondashuvlar matematika darslarida o'yin faoliyatidan samarali foydalanish zaruratini asoslab beradi.

O'yin – aqli zaif bolalar faoliyatining yetakchi shakllaridan biri bo'lib, u orqali bolalarda bilish jarayonlari faollashadi, nutqiy va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi, ijobiy emotsional muhit yuzaga keladi. Didaktik o'yinlar esa ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ular orqali matematik tushunchalar sodda va qiziqarli shaklda o'zlashtiriladi. O'yin jarayonida o'quvchilar solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy amallarni bajaradilar, bu esa ularning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish nafaqat bilimlarni mustahkamlash vositasi, balki korreksion-rivojlantiruvchi ta'limning muhim omili sifatida qaraladi. Mazkur maqolada didaktik o'yinlarning nazariy asoslari hamda ularni matematika darslarida qo'llashning metodik jihatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarda matematika o'qitish metodikasi va didaktik o'yinlardan foydalanish masalalari maxsus pedagogika hamda maxsus psixologiya sohasida keng yoritilgan. Mazkur muammoning nazariy va amaliy asoslari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Maxsus pedagogikaning umumiy nazariy asoslari P.M. Po'latova va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashning tamoyillari, metodlari hamda korreksion yo'nalganligi batafsil bayon etilgan. Mualliflar ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ko'rgazmalilik va

amaliy faoliyatga tayangan holda o'qitish zarurligini ta'kidlaydilar [1, 45–52-b.]. Bu yondashuv didaktik o'yinlarning samarali vosita ekanligini ilmiy asoslaydi.

L.R. Mo'minova va Sh.M. Amirsaidova maxsus psixologiya doirasida aqli zaif bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilib, ularda tafakkur, xotira va diqqat jarayonlarining o'ziga xosligini ko'rsatib o'tganlar. Mualliflar ta'lim jarayonida emotsional rag'bat va o'yin faoliyatining ahamiyatini alohida qayd etadilar [2, 78–84-b.]. Bu esa matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning psixologik asosini tashkil etadi.

M.I. Perovanning maxsus (korreksion) maktablarda matematika o'qitish metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida arifmetik amallarni o'rgatishda bosqichma-bosqichlik, ko'rgazmalilik va amaliy mashqlar tizimining ahamiyati yoritilgan. Muallif o'yin elementlarini qo'llash orqali o'quvchilarning hisoblash malakalarini mustahkamlash mumkinligini ta'kidlaydi [3, 112–118-b.].

M.I. Sagatov va M.P. Xamidovanning "Matematika o'qitish maxsus metodikasi" asarida yordamchi maktablarda matematika fanini o'qitishning mazmuni, shakl va metodlari tizimli ravishda bayon etilgan. Asarda didaktik o'yinlar korreksion-rivojlantiruvchi ta'limning muhim vositasi sifatida tavsiya etilib, amaliy misollar bilan asoslab berilgan [4, 134–140-b.].

Shuningdek, M.P. Xamidovanning ilmiy tadqiqotida aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'at boyligini rivojlantirish masalalari o'rganilgan bo'lib, unda o'yin faoliyatining nutq va bilish jarayonlariga ijobiy ta'siri empirik jihatdan isbotlangan [5, 1789–1791-b.]. Ushbu natijalar o'yin texnologiyalarining maxsus ta'limdagi universal ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, maxsus pedagogika va maxsus psixologiyaning nazariy qoidalariga tayangan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, taqqoslash, amaliy tajriba-sinov ishlari hamda o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida matematika darslarida didaktik o'yinlar tizimli ravishda qo'llanilib, o'quvchilarning hisoblash malakalari, diqqat barqarorligi, og'zaki hisoblash tezligi hamda darsga bo'lgan qiziqish darajasi o'rganildi. Olingan natijalar an'anaviy usulda tashkil etilgan darslar ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologik yondashuv sifatida shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari asos qilib olindi. Didaktik o'yinlar mazmuni o'quvchilarning yosh, individual va psixofiziologik xususiyatlariga mos ravishda tanlandi. Natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilinib, xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari

O'quvchilarning ta'limi va rivojlanishiga yo'naltirilgan o'yin turlaridan biri bu - didaktik o'yinlardir.

Didaktik o'yinlarning mohiyati shundan iboratki, bolalarga kattalar tomonidan qiziqarli tarzda va o'yin shaklida tuzilgan aqliy topshiriqlarni bajarish taklif etiladi. Didaktik o'yinlardan maqsad- bolaning aqliy faolligini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat. Didaktik o'yinlarni nafaqat bilimlarni mustahkamlash vositasi sifatida, balki o'qitishning bir shakli sifatida ham qo'llaydilar.

O'yinlar orqali bolalar solishtirish, taqqoslashni, o'rniga qo'yishni, elementar analiz va sintezni, tez fikrlashni o'rganadilar. Bularning barchasi, o'z navbatida, tafakkurni rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlarning darsda qo'llanilishi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Qo'yilgan dars maqsadiga didaktik o'yinlarning mos kelishi, bunda o'yinning

mazmuni o'quv dars materialida aks eta olishi zarur.

2. O'yin shaklining va olib borilishining turfa xilligi. Bunda o'quvchilarning bilish darajalarini, o'zaro hamjihatliklari qay darajada ekanligini hisobga olish kerak.
3. Har bir qatnashuvchining o'yin davomida faolligi (barcha o'quvchilarni qamrab olishi zarur)
4. O'quvchilarda o'yinning sodda va tushunarli bo'lishi. O'yin shartlari bolalarga tushunarli, o'yin maqsadi o'ziga tortuvchi bo'lishi kerak.
5. O'yinning xisssiyliigi. O'yinning yorqin ranglarda va qiziqarli olib borilishi ancha katta o'rin tutadi. Bunda asosiy o'rinni qatnashuvchilar orasidagi musobaqa egallaydi.

Barcha didaktik o'yinlar uch asosiy turga bo'linadi:

1. To'g'ridan-to'g'ri didaktik ta'sirga ega o'yinlar, bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda o'yin ishtirokchilarining biri sifatidagi rolda harakat qiladi;
2. Bilvosita didaktik ta'sirga ega o'yinlar, bunda o'qituvchi "o'yindan tashqari" holatda kuzatuvchi yoki muxlis sifatida ishtirok etadi.
3. Aralash didaktik ta'sirga ega o'yinlar, bunda o'qituvchi o'yinda boshlovchi, hakam, mutaxassis yoki maslahatchi rolda ishtirok etadi.

Tajriba-sinov ishlari davomida ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab matematika darslarida didaktik o'yinlardan tizimli va maqsadli foydalanishning samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash malakalari, matematik amallarni bajarishdagi aniqlik darajasi, dars jarayonidagi faolligi hamda o'quv motivatsiyasi kuzatildi va tahlil qilindi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, didaktik o'yinlar qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning matematik amallarni bajarishdagi xatolari sezilarli darajada kamaydi. Ayniqsa, qo'shish va ayirish amallarini bajarishda ketma-ketlikni saqlash, sonlar qatorini to'g'ri aniqlash hamda masalalarni og'zaki tahlil qilish ko'nikmalari yaxshilandi. O'quvchilarning tezkor fikrlash va diqqatni jamlash qobiliyati ortgani kuzatildi.

Shuningdek, o'yin elementlari bilan boyitilgan darslarda o'quvchilarning emotsional holati barqarorlashgani, darsga qiziqish va ishtirok faolligi oshgani aniqlandi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarishda mustaqillik ko'rsatishga intildilar, o'zaro hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalari shakllandi. O'yin davomida yuzaga kelgan ijobiy raqobat muhiti ularni faolroq bo'lishga undadi.

Nazorat sinflari bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, an'anaviy usulda o'tilgan darslarga nisbatan didaktik o'yinlar qo'llanilgan darslarda bilimni o'zlashtirish darajasi yuqoriroq bo'ldi. O'quvchilarning xotira hajmi, og'zaki hisoblash tezligi va topshiriqlarni tushunish darajasi ijobiy o'sish dinamikasini namoyon etdi.

Tadqiqot natijalari didaktik o'yinlardan foydalanish ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab matematika darslarida ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytirish hamda korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi.

1-jadval. Didaktik o'yinlardan foydalanish samaradorligi

Ko'rsatkichlar	Nazorat sinfi (%)	Tajriba sinfi (%)
Matematik amallarni to'g'ri bajarish	60–65	80–85
Og'zaki hisoblash tezligi	55–60	75–85
Darsdagi faollik darajasi	50–60	80–90
Masalalarni mustaqil yechish	58–63	78–88

1-jadvalda ixtisoslashtirilgan yordamchi maktabda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari

natijalari aks ettirilgan bo'lib, unda nazorat va tajriba sinflarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, didaktik o'yinlar qo'llanilmagan nazorat sinfida matematik amallarni to'g'ri bajarish darajasi o'rtacha 60–65 % ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba sinfida bu ko'rsatkich 80–85 % gacha oshgani kuzatilgan. Bu natija didaktik o'yinlar hisoblash malakalarini shakllantirish va xatolarni kamaytirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Og'zaki hisoblash tezligi ham tajriba sinfida sezilarli darajada yuqori bo'lib (75–85 %), nazorat sinfiga nisbatan 20 % ga yaqin o'sish qayd etilgan. Bu esa o'yin jarayonida tez fikrlash, diqqatni jamlash va xotira faollashishi bilan izohlanadi.

Darsdagi faollik darajasi bo'yicha ham tajriba sinfi ustunlik qilgan (80–90 %), nazorat sinfida esa bu ko'rsatkich 50–60 % atrofida bo'lgan. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda ijobiy emotsional muhit yaratgani va ularni faol ishtirok etishga undagani kuzatilgan.

Masalalarni mustaqil yechish ko'rsatkichi ham tajriba sinfida yuqori natijani (78–88 %) namoyon etgan. Bu o'quvchilarda mustaqillik, o'ziga ishonch va amaliy tafakkur ko'nikmalari rivojlanganidan dalolat beradi.

Muhokama

Har bir didaktik o'yin o'quvchilar harakatlarining ketma-ketligi va hulqini belgilab beruvchi, dars davomida ishchi muhitni yaratishga ko'maklashuvchi qoidaga ega. Bundan tashqari, o'yin qoidalari o'z xulqini boshqara bilish, jamoa talablariga bo'ysinish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Qoidalar o'yin davomida bolalarga biron-bir narsani man etishi, ruxsat berishi, buyurishi, o'yinni qiziqarli yoki qizg'in qilishi mumkin.

O'yin davomida qoidalarga bo'ysunish bolalardan kuchli irodani, tengdoshlari bilan muloqotga kirisha bilishni, omadsiz natijalar bois namoyon bo'luvchi salbiy his tuyg'ularni yengib o'tishni talab etadi. O'yin qoidalarini belgilashda bolalar oldiga shunday shartlarni qo'yish kerakki, ular topshiriqni bajarishdan zavqlansinlar.

Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarda matematika fanini o'qitish nafaqat bilim berish, balki korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishni ham nazarda tutadi. Intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda abstrakt tafakkur yetarlicha shakllanmaganligi sababli matematik tushunchalarni bevosita amaliy faoliyat, ko'rgazmali vositalar va o'yin elementlari orqali o'zlashtirish samaraliroq hisoblanadi. Shu bois didaktik o'yinlar matematika darslarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qoraladi.

Didaktik o'yinlarni tanlashda ularning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish muhim: o'yin maqsadining dars maqsadi bilan uyg'unligi, topshiriqlarning soddadan murakkabga qarab tuzilishi, ko'rgazmalilik darajasi, bolalarning mustaqil harakat qilish imkoniyati va ijobiy emotsional muhitni ta'minlashi. Ayniqsa, o'yin jarayonida har bir o'quvchining ishtiroki ta'minlanishi, muvaffaqiyat holatini yaratish va rag'batlantirish muhim pedagogik shart hisoblanadi. Matematika darslarida didaktik o'yinlar orqali son va miqdor haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash, qo'shish va ayirish amallarini ongli bajarish, sonlar qatorini o'zlashtirish, masala yechish malakalarini shakllantirish mumkin. Masalan, predmetli o'yinlar (tugmacha, kubik, kartochka bilan ishlash) konkret tasavvurlarni boyitadi; harakatli o'yinlar esa diqqatni jamlash va tez fikrlashni rivojlantiradi; og'zaki o'yinlar esa xotira va nutq faolligini oshiradi. Shuningdek, didaktik o'yinlar o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. O'yin davomida o'quvchilar jamoa bilan ishlash, navbat kutish, qoidalarga rioya qilish, o'z fikrini ifodalash va boshqalarning fikrini tinglashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Didaktik o'yinlarni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin: yangi mavzuni tushuntirishda motivatsion vosita sifatida, bilimlarni mustahkamlashda mashq sifatida, nazorat bosqichida esa bilim va ko'nikmalarni tekshirish usuli sifatida. O'yin elementlarini darsning

barcha bosqichlariga uyg'unlashtirish o'quvchilarning charchashini kamaytiradi va dars samaradorligini oshiradi.

Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab matematika darslarida qo'llash uchun quyidagi o'yinlarni tavsiya etamiz:

“Quvnoq vagonchalar” oyini

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning matematik amallarni bajarishlari jarayonida yo'l qoyiladigan xatoliklarni bartaraf etishga o'rgatish



Oyin topshirig'i: Topshiriqlarni doiraviy misollar yechish orqali o'quvchilarning bilimini mustahkamlash

Oyin bayoni:

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha savol beradi:

-Siz qanday tansportlarni bilasizlar?

-Avtobus, poezd, metro, yengil mashinalar.

-Juda to'g'ri javob qildingiz, endi hozir sizlar bilan, “Quvnoq vagonchalar” o'yinini oynaymiz

1-variant

Ko'rgazmali qurollarda ko'rsatilgan misollarning javobini topish lozim.

$$10-2=8$$

$$7-2=5$$

$$4-1=3$$

$$8+1=9$$

$$5+1=6$$

$$3-2=1$$

$$9-2=7$$

$$6-2=4$$

$$10-9=1$$

2-variant masalali topshiriqlar

Yuk tashuvchi poezdlar vagonlariga sabzavotlar, mevalar yuklab, ularni bir shaxardan ikkinchi shaharga jo'natish mumkin.

Piyoz olma sabzi uzum

$$8+2$$

$$2+7$$

$$6+3$$

$$4+6$$

“Narigi qo'limda qancha?” o'yini

O'yin jihozlari: kichikroq predmetlar- tugmachalar, munchoqlar va boshqalar.

O'yinning mazmuni:

- 1- Doskaga bir o'quvchi chiqib aytadi: “Menda faqat 5 dona tugmacha bor. O'ng qo'limda 3 ta tugmacha bo'lsa, shunda chap qo'limda nechta tugmacha bo'ladi?”-deydi. To'g'ri topgan birinchi o'quvchi uning o'rnini egallaydi.

2-variant: O'yinni o'qituvchi boshlab beradi.” Menda 10 ta sharlar bor. Agar chap qo'limda 5 shar bo'lsa, o'ng qo'limda nechta shar bor?”

Bu o'yin 1-sinf o'quvchilariga o'ng va chap qo'lda mo'ljal olishda, to'g'ri hisoblash malakalarini shakllantirishda yordam beradi.

”Zanjir” o'yini

O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda hisoblash amallarini bajaradilar. Masalan:

O'qituvchi: 5 soniga birni qo'shsak... Amirbek davom ettir

Amirbek: 5 soniga birni qo'shsak, 6 bo'ladi.

O'qituvchi: Madina endi sen davom ettir.

Madina: So'ngra 6 ga yana birni qo'shamiz, 7 bo'ladi

Bu tarzda qo'shish va ayirish amallarini og'zaki bajartirish orqali o'quvchilarni

xotiralarini kuchaytiradi, “yig‘indi”, “ayirma” ga oid mavzularni puxta o‘zlashtirishlariga, tez hisoblash malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

“Kubiklarni ot va to‘g‘ri hisobla” o‘yini

O‘yin jihozi: 2 ta kattaroq, atroflariga sonlar yozilgan kubiklar.

O‘yin mazmuni: Avval ikki o‘quvchi doskaga chiqishadi va galma-gal kubiklarni partaga tashlashadi, tushgan kubiklarni tepasidagi sonlarni doskaga yozishadi:

Masalan, kubiklarni tepasidagi sonlar 1 va 4 bo‘ldi deylik:

$$4+1=5$$

$$1+4=5$$

$$4-1=3$$



Shu tariqa o‘yin davom etadi. Qolganlar misollarning to‘g‘ri yoki no‘to‘g‘riligini tekshirib turadilar.

“Qanday son yetishmayapti?”

O‘yin mazmuni: O‘qituvchi ikki sonni aytadi, o‘quvchilar esa shu sonlar orasidagi sonlarni to‘g‘ri topishlari lozim. Masalan: “3, ..., ..., ..., 7”

O‘quvchilar: “4, 5, 6”

O‘qituvchi: “2, ..., ..., 5”

O‘quvchilar: “3, 4”

Xulosa

Didaktik o‘yinlar asosida amallarni bajarish, masalalarni yechishga qaratilgan qiziqarli mazmun, bolaning aqliy va jismoniy harakati yotadi. Ular orqali fikrlash jarayoni - tahlil taqqoslash xususiyatlari rivojlanadi. Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar ahamiyati shundaki, ular o‘quvchilarning ta’lim olishiga, tarbiyasiga va rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘yin davomida yuzaga keluvchi ijobiy his-hayajon o‘quvchilarning kichik yoshdagi o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini tarbiyalashini faollashtiradi, xotirasini, e’tiborini kuchaytiradi. O‘yin davomida o‘quvchilar o‘zlari bilmagan holda ko‘pgina harakatlar, mashqlar bajaradi, masalalar yechadi. Darslarda qo‘llanilgan didaktik o‘yin faoliyati natijasida ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish ham ortib boradi. O‘yin aqli zaif bolalarni o‘qitishda tengi yo‘q faoliyatdir. Aynan o‘yin bunday bolalarni rivojlantirishda, nuqsonlarini korreksiyalashda va o‘qitishda qo‘l keladi. Bunda o‘yin va ta’lim jarayoni o‘zaro chambarchas bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Пулатова П.М. ва бошқалар -Махсус педагогика. -Т.: “Фан ва технологиялар”. -2014 й.
2. Мўминова Л.Р., Амирсайдова Ш.М ва бошқалар. Махсус психология. Т.: “Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти”, 2013 й.
3. Перова М. И. Методика преподавания математики в специальной (коррекционной) школе VIII вида: Учеб. Для студ. дефект, фак. пед. вузов. — М.: Гуманит. изд. Центр ВЛАДОС, 2001
4. Sagatov M.I., Xamidova M.P. Matematika o‘qitish maxsus metodikasi. T.: Nodirabegim nashriyoti. 2021 y.
5. Khamidova M. P. A Study of the Impressive Vocabulary of Preschool Children with Mental Frailty //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – С. 1787-1793.